BOSH MIYADA QON AYLANISHNING O'TKIR BUZILISHI BILAN KASALLANGAN BEMORLARDA "KALGEN" PREPARATINI DAVO DAVOMIYLIGIGA TA'SIRINI O'RGANISH

Avezova S.Y. Nabiyev N.I.

Toshkent Tibbiyot Akademiyasi Urganch filiali, Urganch shahri, O'zbekiston

Dolzarbligi: Hozirgi paytda ekologiya va ijtimoiy omillar ta'sirida bosh miyada qon aylanishning o'tkir buzilishi bilan kasallangan bemorlar soni ko'payib bormoqda. Ushbu kasalliklar o'limga olib keluvchi sabablar orasida butun dunyo bo'yicha ikkinchi o'rinda bo'lib, nogironlikka olib keluvchi asosiy sababchilaridan biri xisoblanadi. Dunyoning turli mintaqalarida uchrash tezligi har 1000ta bemorda 1-4ta. Rossiyada har yili 400 000 dan ortiq insult ro'yhatga olinadi.

Tadqiqot maqsadi: Bosh miyada qon aylanishning o'tkir buzilishi bilan kasallangan bemorlarni davolashda patogenetik davo sifatida "Kalgen" preparatini samaradorligini baholash;

Material va uslublar: 1. 20 nafar bosh miyada qon aylanishning o'tkir buzilishi bilan kasallangan bemorlarni tanlab olindi. 2. Bemorlar ikki guruhga bo'lindi. 1-guruh bemorlarni davolashda "Kalgen" preparatini qo'llandi. 2-guruh bemorlariga an'anaviy davo qo'llanildi.

R.Sh.T.Y.I.M. Xorazm filialida bosh miyada qon aylanishning o'tkir buzilishi bilan kasallangan 20 nafar bemor tibbiy ko'rikdan o'tkazildi, ulardan 10 nafari ayollar, 10 nafari erkaklar. Bemorlarning o'rtacha yoshi 40 dan 60 yoshgacha. Bu bemorlarning barchasida patologik reflekslar, sezgi funksiyasining buzilishi, shuningdek, xotirani yo'qotish, kognitiv-intellektual funksiyalarining buzilishilari aniqlandi. O'tkir davrining dastlabki 7 kunida 1-guruhdagi 10 nafar bemorlarga intensiv kompleks terapiya o'tkazildi, shu bilan birga "Kalgen" preparati nevrologik holat, qon bosimi, EKG monitoringi nazorati, umumiy qon tahlili, protrombin indeksi (PTI), qonni ivish vaqti nazoratida tomir ichiga fiziologik eritma bilan har kuni 1max tomizildi. Mavjud davo o'rnida neyroprotektiv va neyrotrofik ta'sirga ega dori sifatida "Cerebrolysin" preparati 20 ml dozada, tomir ichiga fiziologik eritma bilan nevrologik holat, qon bosimi, EKG monitoringi nazorati, umumiy qon tahlili, protrombin indeksi (PTI), qonni ivish vaqti nazoratida (90 daqiqa davomida), har kuni 1max 7 kun davomida ishlatildi.

Natijalar va xulosalar: 1-guruhdagi bemorlarda 2-guruhdagi bemorlarga qaraganda sensor va motor funksiyalaridagi buzilishlar tezroq tiklandi, insult asoratlari kamaydi va umumiy davo intervali 1.5 marta qisqardi. Shu jumladan, ijtimoiy va iqtisodiy jihatdan davo davomiyligi 1.5marta kamaydi.